Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari	894
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....	900
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar"dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	1081
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	



Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



O'ZBEKISTONDA TADBIRKORIKNI RIVOJANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna

Termiz davlat Universiteti erkin tadqiqodchisi

lola.djurayeva.81@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0009-0131-8719>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadbirkorlik tushunchasining nazariy asoslari, uning iqtisodiy faoliyatdagi roli, asosiy belgilari va turlari tahlil etiladi. Shuningdek, O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining shakllanish bosqichlari va ularning mamlakatda bandlik darajasiga ta'siri ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Tahlillar orqali kichik biznesning iqtisodiy barqarorlik va ish o'rinlari yaratishdagi o'rni aniqlanadi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, iqtisodiy faoliyat, bandlik, ishsizlik, taraqqiyot bosqichlari.

Abstract: This article explores the theoretical foundations of entrepreneurship, its role in economic activity, key features, and classifications. Particular attention is given to the stages of entrepreneurial development in Uzbekistan and their influence on employment rates. The analysis reveals the contribution of small businesses to economic stability and job creation.

Key words: entrepreneurship, small business, economic activity, employment, unemployment, development stages.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы предпринимательства, его роль в экономической деятельности, основные характеристики и виды. Особое внимание уделяется этапам развития предпринимательства в Узбекистане и их влиянию на уровень занятости. Исследование выявляет значимость малого бизнеса в обеспечении экономической устойчивости и создании рабочих мест.

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес, экономическая активность, занятость, безработица, этапы развития.

KIRISH

Zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy jarayon, balki keng ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. U huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va tarixiy jihatlar bilan ajralib turadi hamda insonning samarali, tashabbuskor faoliyatini anglatadi. Bugungi globallashtiruv davrida iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida tadbirkorlikning tutgan o'rni yanada ahamiyat kasb etmoqda.

Sharqona tafakkurda, xususan, iqtisodiy tafakkurida ham tadbirkorlik faoliyatining axloqiy va mehnatsevarlik tamoyillariga asoslangani yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek, Imom Malik ibn Anas, Imom al-Buxoriy, Imom Termiziy kabi buyuk olimlarining ilmiy meroslarida ham tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish va uni ijtimoiy hayotga uyg'unlashtirish bo'yicha muhim g'oyalar ilgari surilgan. Amur Temurning "Temur tuzuklari" asarida esa davlat boshqaruvi, resurslardan foydalanish, rahbarlik fazilatlar, harbiy va iqtisodiy tashkilotlarni boshqarish kabi dolzarb masalalarga oid ko'rsatmalar mavjud bo'lib, ular zamonaviy boshqaruv nazariyasida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish, xususiyl mulkchilik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan izchil islohotlar tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda. Bu esa tadbirkorlik faoliyatini chuqur ilmiy asosda o'rganish va uning jamiyat taraqqiyotidagi rolini baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik tushunchasi XVI asrdan boshlab iqtisodchilar, psixologlar va siyosatshunoslar e'tiborini o'ziga torta boshlagan. Jumladan, klassik iqtisodiyot vakillari – J.B. Sey, A. Marshall, V. Zombart, Y. Shumpeter va F. Noytlar tadbirkorlik ilmining klassik asoschilaridan hisoblanadi.

XVIII asr boshlarida iqtisodiy nazariyaga birinchi bo'lib “tadbirkorlik” tushunchasini ingliz iqtisodchisi R. Kantilon kiritgan. U tadbirkorni foyda olishi chegaralanmagan holda, narxi ma'lum tovarlarni xarid qiluvchi, biroq ularni noma'lum bahoda sotuvchi, ya'ni tavakkalchi sifatida tavsiflaydi. R. Kantilonga ko'ra, tadbirkor talab va taklifni uyg'unlashtiruvchi muhim shaxsdir.

Jan Batist Sey esa tadbirkorni ishlab chiqarish omillarini muvofiqlashtiruvchi vositachi, tajriba va bilim sohibi deb ta'riflaydi. V. Zombart tadbirkorlikdagi tavakkalchilik faqat siyosat va savdo bilan cheklanmasligi, balki boshqa sohalarida ham mavjudligini ta'kidlab, bu xatti-harakatni qaroqchi yoki bosqinchilik bilan tenglashtiradi.

Y. Shumpeter esa tadbirkorlikning besh asosiy jihatini ajratib ko'rsatadi: iste'molchilarga ilgari noma'lum bo'lgan yangi mahsulotlar yaratish; yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish; mavjud mahsulotlarning tijorat salohiyatini oshirish; yangi xom ashyolarni o'zlashtirish; hamda ishlab chiqarish sohalarini takomillashtirish. Shuningdek, u tadbirkorning albatta mulkdor bo'lishi shart emasligini, yollanuvchi ham bo'lishi mumkinligini, asosiy vazifasi esa innovatsion kombinatsiyalarni amalga oshirish ekanligini ta'kidlaydi.

Tadbirkor – bu o'zida mavjud mablag' va imkoniyatlarini tavakkal ostiga qo'yib, bozorga yangi g'oya, mahsulot, xizmat yoki loyiha bilan kiruvchi ishbilarmon shaxsdir. Tadbirkorning salohiyati esa, asosan, u yuritayotgan faoliyatning samaradorligi bilan baholanadi.

Tadbirkorlik va biznes tushunchalari mazmunan bir-biriga yaqin bo'lib, ular insonlarning ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish orqali foyda olishga qaratilgan iqtisodiy munosabatlarini ifodalaydi. Business (inglizcha so'z) – “ish” degan ma'noni bildiradi; “businessman” – ish bilan shug'ullanuvchi shaxs deganidir. Umuman olganda, biznes – foyda (daromad) olish maqsadida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki savdo faoliyatini ifodalaydigan iqtisodiy atamadir. Biznes bilan shug'ullanuvchi shaxslar “biznesmenlar” yoki “ishbilarmon tadbirkorlar” deb ataladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstrasiyalash, kuzatish, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunga kelib, tadbirkor faoliyatining doirasi mazmunan, miqdor va sifat jihatidan sezilarli darajada o'zgardi. Endilikda tadbirkor mahsulotni qachon, qancha miqdorda, qaerda va kim uchun ishlab chiqarishni mustaqil ravishda hal qiluvchi subyektga aylandi. U o'z faoliyatini tashkil etish jarayonida qancha miqdorda ishlab chiqarish resurslari – bino, xom ashyo, materiallar, uskunalar, mehnat resurslari, transport vositalari, kapital mablag'lar, ombor maydonlari va boshqa zarur vositalarni – talab qilinishini aniqlaydi hamda ulardan oqilona foydalanish orqali yuqori daromad olishga intiladi.

Olingan daromad evaziga davlat byudjeti oldidagi soliq majburiyatlarini bajarish, shuningdek, faoliyat ko'lamini kengaytirish tadbirkorning asosiy maqsadiga aylanadi. Yuqoridagilarga asoslanib, tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif berish mumkin:

“Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – bu tadbirkorlik subyektlari tomonidan amaldagi qonunchilik doirasida, o'z kapitalini tavakkal ostiga qo'ygan holda va mulkiy javobgarlik asosida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatdir”².

Tadbirkorlik (biznes) iqtisodiy kategoriya sifatida qaralib, xo'jalik yuritish shakli hamda iqtisodiy fikrlash usulini anglatadi. Uni o'rganishda, avvalo, iqtisodiy faoliyatning subyektlari va obyektlariga e'tibor qaratish zarur. Subyektlar yakka tartibdagi, guruh yoki jamoa shaklida bo'lishi mumkin.

Tadbirkorlik obyekti sifatida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, savdo-sotiq faoliyati, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishlari tushuniladi. Ishlab chiqarilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlar natijasida olinadigan daromad – tadbirkorlik faoliyatining asosiy baholash mezonidir. Bu daromad, asosan, mavjud resurslardan oqilona va samarali foydalanish bilan bog'liqdir.

Tadbirkorlik avvalo mavjud sharoitda ma'lum bir yo'nalishda faoliyat yuritish imkoniyatini belgilaydi. Keyinchalik esa, mavjud resurslar asosida yangi kombinatsiyalar yaratish tadbirkor uchun zaruriy holatga aylanadi. Demak, real sharoitda tadbirkorlik obyektiining mohiyati aynan resurslar kombinatsiyasini amalga oshirishdan iboratdir(1-rasm).



1-rasm. Tadbirkorlikning muhim belgilari.

Tadbirkorlikning mustaqilligi va erkinligi bozor iqtisodiyoti mexanizmini samarali ishlashini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. U tadbirkorga aniq va mustaqil qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Tadbirkorning iqtisodiy manfaatdorligi aynan uning faoliyatdagi erkinligi bilan uzviy bog'liq. Daromad va foydani yuqori darajaga yetkazish tadbirkorlik faoliyatining asosiy mezoni hisoblanadi va strategik qarorlar aynan shu yo'nalishda shakllantiriladi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyati hech qachon xavf-xatardan xoli bo'lmaydi. Sababi, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat doimiy mavjud bo'lib, u xavf darajasini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Tadbirkorlikdagi javobgarlik – bu bozor sharoitlaridan ongli va oqilona foydalanish, mas'uliyatni his qilish hamda bozordagi o'z mavqeini saqlab qolishning asosiy kafolatidir.

Tadbirkorlik taraqqiyotining mavjud darajalari bo'yicha uni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Rivojlangan tadbirkorlik – bu ko'p hollarda iqtisodiyoti barqaror va infratuzilmasi shakllangan davlatlarga xosdir.
2. Rivojlanayotgan tadbirkorlik – iqtisodiy islohotlar bosqichida bo'lgan, o'tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarga xos.
3. Rivojlanmagan tadbirkorlik – iqtisodiy salohiyati past, infratuzilmasi yetarli darajada shakllanmagan mamlakatlarda uchraydi.

Bugungi kunda kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tarkibiga quyidagilar kiradi¹:

- Yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar;
- Ishlab chiqarish tarmoqlarida xodimlar soni 20 kishidan oshmaydigan, xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish sohalarida 10 kishidan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish sohalarida esa 5 kishidan oshmaydigan mikrofirmalar.

Dunyo miqyosida kichik biznes subyektlarini aniqlashda yagona universal tasnif mavjud emas. Shunga qaramay, turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznesni tasniflash uchun umumiy mezonlar shakllangan. Ba'zi mamlakatlarda bu tasnif ishchilar soniga asoslanadi, boshqalarida esa bir nechta mezonlar qo'llaniladi. Masalan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznes toifasiga kiruvchi korxonalarni aniqlashda 50 dan ortiq ko'rsatkich mavjud bo'lib, ular orasida eng asosiylari ishchilar soni, yillik aylanma va aktivlar miqdoridir². Aksariyat rivojlangan davlatlarda kichik biznes subyektlarini ajratishda hal qiluvchi mezon aynan ishchilar soni hisoblanadi³(1-jadval).

1 A.Abdullaev va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. Toshkent "Iqtisodiyot dunyosi" – 2021

2 Лапуста М.Г., Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. – М.: ИНФРА-М, 1997. – С. 5

3 Социально-экономические аспекты развития инновационных процессов малых и средних предприятий. <http://elibrary.ru/item.asp?id=26484775>



1-jadval. O'zbekistonda tadbirkorlik rivojlanishining bosqichlari.

1-bosqich	XIX asrning 20- yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davr mayda hunarmandchilik va savdogarchilik yuqori sur'atlarda rivojlanishi bilan xususiyatlidir. Bu davr qo'l mehnatning yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi va iqtisodiyotda yakka tadbirkorlik o'ziga xos tarzda rivojlanadi.
2-bosqich	Tiklanish davri, 1999-2000-yillarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu davrda mamlakatimizda ko'pgina kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda korxonalari shakllantirildi. Ularning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Davlatimiz tomonidan zarur yordamlar (imtiyozli ssudalar ajratilishi, vaqtincha soliqlardan ozod etish, sarmoyalarni shakllantirish tajribalarini qo'llashga imkoniyatlar berilishi kabi) ko'rsatildi.
3-bosqich	“O'zbekiston Respublikasini mustaqillikka erishgandan keyingi davr bo'lib, Davrni xususiyatli tomoni shuki, iqtisodiyotda «Tanglik» holati hukm surishi, iqtisodiyotni erkinlashtirish hamda barqarorlashtirish bosh vazifa qilib belgilanishi, va bu bosh vazifani amalga oshirishning davlat tomonidan maxsus mexanizmi yaratilishi shartligi, uning muhim yo'llaridan biri sifatida erkin tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilishi bilan” ⁴ tavsiflanadi.

Tadbirkorlikning rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda quyidagi tarixiy davrlarga ajratish mumkin:

1-bosqich – XIX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr mayda hunarmandchilik va savdogarchilikning yuqori sur'atlarda rivojlanishi bilan ajralib turadi. Asosiy xususiyat – qo'l mehnatining ustuvorligi va yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy tizimda yetakchilik qilganligidir.

2-bosqich – “Qayta uyg'onish davri” bo'lib, asosan, 1990-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. Mazkur davrda tadbirkorlik va kichik biznesning huquqiy asoslari shakllantirildi, ularga ruxsat beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi.⁵

3-bosqich – “Tiklanish davri” bo'lib, 1999–2000-yillarni qamrab oladi. Bu davrda mamlakatimizda ko'plab kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi. Ularning muvaffaqiyatli faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratildi: imtiyozli kreditlar ajratildi, vaqtincha soliqlardan ozod qilish choralari ko'rildi va sarmoya jalb qilish bo'yicha mexanizmlar amaliyotga tatbiq etildi.

4-bosqich – Tadbirkorlik faoliyati davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan davr bo'lib, bunda ishbilarmonlik muhiti sifat jihatdan yangi bosqichga o'tdi.

Ma'lumki, iqtisodiy fanlarda tadbirkorlik haqidagi nazariy qarashlar XVIII asrda shakllangan bo'lsa-da, O'zbekistonda bu soha chuqur tarixiy ildizlarga ega. Xususan, Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida “Buyuk ipak yo'li”ning bizning hududdan o'tganligi va iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojiga hissa qo'shganligi bunga yaqqol misoldir⁶.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirishda quyidagi omillar bilan ahamiyatlidir:

- Birinchidan, yirik korxonalarga nisbatan bozor talablariga tezroq moslasha oladi;
- Ikkinchidan, yangi ish o'rinlarini yaratishda yuqori salohiyatga ega;
- Uchinchidan, o'rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish orqali mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta'minlaydi;
- To'rtinchidan, sog'lom raqobat muhitini shakllantirib, sifatli mahsulot va xizmatlar yaratish, iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

2023-yil yakunlariga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlarining respublikadagi umumiy bandlikdagi ulushi 74 foizni tashkil etgan. Eng yuqori ko'rsatkich Samarqand viloyatida 81,1 foiz, Namangan viloyatida esa 80,9 foiz bo'lgan. Eng past ko'rsatkich esa Navoiy viloyatida qayd etilib, 52,1 foizni tashkil etgan. 2020-yil bilan solishtirilganda, respublika bo'yicha bu ko'rsatkich 0,5 foizga kamaygan, biroq Samarqand va Namangan viloyatlarida mos ravishda 0,6 va 1,7 foizga, Navoiy viloyatida esa 0,2 foizga o'sgani kuzatilgan (2-jadval).

Umuman olganda, kichik tadbirkorlik subyektlarining bandlikdagi yuqori ulushi bu sohaning mamlakat iqtisodiyoti uchun naqadar muhimligini tasdiqlaydi.

4 Kichik_biznes_ va_xususiy_tadbirkorlik_faoliyatini_boshqarish_f8335.pdf11.9 3 MB (1/2). http://el.tfi.uz/images/15-54_Kichik_biznes_va_xususiy_tadbirkorlik_faoliyatini_boshqarish_f8335.pdf#1

5 Kichik_biznes_ va_xususiy_tadbirkorlik_faoliyatini_boshqarish_f8335.pdf11.9 3 MB (1/2). http://el.tfi.uz/images/15-54_Kichik_biznes_va_xususiy_tadbirkorlik_faoliyatini_boshqarish_f8335.pdf#1

6 Kichik_biznes_ va_xususiy_tadbirkorlik_faoliyatini_boshqarish_f8335.pdf11.9 3 MB (1/2). http://el.tfi.uz/images/15-54_Kichik_biznes_va_xususiy_tadbirkorlik_faoliyatini_boshqarish_f8335.pdf#1

2-jadval. Respublikada kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushiga nazar solsak⁷.

Klassifikator	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	74,3	75,1	75,6	76,7	77,6	77,9	78,2	78	76,3	76,2	74,5	74,5	73,9	74
Qoraqalpog'iston Respublikasi	71,1	72,3	71	73,7	74,8	74,5	75,1	75,1	75,6	74,9	74,2	74,2	74,1	74,5
Andijon viloyati	81	82,4	82,8	83,3	83,7	83,8	84,4	84,2	81,7	82,1	80,8	80,7	80,2	80,7
Buxoro viloyati	76,5	76,8	77,3	78,5	78,8	78,5	78,5	78,5	76,5	76,1	74,9	74,2	74,3	74,5
Jizzax viloyati	78,3	79,1	80,3	81	81,4	81,7	81,8	80,9	79	79,7	78,4	78,8	77,3	77,1
Qashqadaryo viloyati	74,8	76,1	77	77,9	78,7	79,6	79,9	80	79	78,5	78,1	78,5	78,2	78,1
Navoiy viloyati	55,8	56	58,8	59,4	60,2	60,3	60,3	59,3	56,2	55	51,9	52,3	51,1	52,1
Namangan viloyati	78,7	80,2	80,7	81,7	83	83,3	83,3	83,5	83	82,8	81,6	82,2	81	80,9
Samarqand viloyati	82	82,3	81,8	83,2	83,7	84,1	84,5	84,5	83,1	82,8	81,7	81,5	80,9	81,1
Surxondaryo viloyati	75	76,3	77,5	79	79,9	80,3	80,9	80,9	79,4	79,6	78,2	78,4	76,9	76,8
Sirdaryo viloyati	77,5	78,5	77,5	79	79,4	79,4	79,4	78,8	77,4	76,4	74,5	74,4	72,9	71,9
Toshkent viloyati	72,7	73,4	74,2	75,3	76,3	76,8	76,9	75,1	73,2	72,8	70,8	69,8	70	70,6
Farg'ona viloyati	77	76,3	77,3	78,9	80	80,3	80,5	80,6	78,9	79,4	78,4	78,5	78,7	79,1
Xorazm viloyati	78,4	79,6	79,1	78,5	82,1	82,4	82,8	82,2	80,6	80,4	79,3	79,1	78,1	78,5
Toshkent shahri	56,8	57,1	57,3	57,5	57,6	57	56,6	56,7	53,1	53,7	49,7	50,2	50	49,4

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- Aholi orasida tadbirkorlikning yangi va zamonaviy shakllarini shakllantirish hamda rivojlantirishga bo'lgan moyillikning yuqoriligi;

- Tadbirkorlik faoliyatining asta-sekin shakllanib, mamlakat ta'lim tizimi bilan uyg'un ravishda takomillashib borayotgani;

- Aholi daromadining jamg'arma shakllanishiga ajratilayotgan ulushi yuqoriligi;

- O'zbekistonning xalqaro hamjamiyat bilan teng huquqli va mustahkam iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'ygani;

- Mehnatga haq to'lash darajasi va aholi xarid qobiliyatining hali yetarlicha yuqori emasligi;

- Qulay siyosiy barqarorlik va ijtimoiy muhitning yaratilgani.

- Tahlillar asosida, respublika qonunchiligi va strategik rivojlanish yo'nalishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida quyidagi uch muhim masala ustuvor hisoblanadi:

- Yalpi ichki mahsulotdagi ulushni oshirish – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o'sishning asosiy tarkibiy qismiga aylanishi zarur;

- Bandlikni ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish – ushbu sohaning rivojlanishi aholining barqaror daromad manbaiga ega bo'lishini ta'minlaydi;

- Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik poydevorini mustahkamlash – mikro, kichik va o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish orqali ularning iqtisodiy manfaatdorligini oshirish zarur.

Mazkur yo'nalishlardagi kompleks yondashuv va amaliy choralar kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni mamlakatimizda yanada rivojlantirish, iqtisodiy o'sishning ichki drayveriga aylantirishga xizmat qiladi. Bu esa O'zbekistonning barqaror, o'zini o'zi ta'minlay oladigan va raqobatbardosh iqtisodiyotga ega bo'lishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

⁷ Stat.uz ma'lumotlari

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2000-yil 25-may. 3-modd.
2. A. Abdullaev va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. Toshkent: "Iqtisodiyot dunyosi", 2021.
3. Дальний Восток с стратегии инновационной политики России начала XXI века в контексте современного исторического знания. <http://elibrary.ru>
4. Kichik_biznes_va_xususiy_tadbirkorlik_faoliyatini_boshqarish_f8335.pdf, 11.9 MB (1/2)
5. Лапуста М. Г., Старостин Ю. Л. Малое предпринимательство. – М.: ИНФРА-М, 1997. – С. 5.
6. Социально-экономические аспекты развития инновационных процессов малых и средних предприятий.
7. <http://elibrary.ru>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
